

70230104 – Adabiyotshunoslik magistratura mutaxassisligi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI


OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

- # **OLTA LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

70230104 – Adabiyotshunoslik magistratura mutaxassisligining

MALAKA TALARLARI

Toshkent – 2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

1. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
2. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
3. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil “01” 08 dagi 277-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Kashbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar

Azaliyotlarga qo‘yiladigan talablar

Faulor katalogining turilishi

Bibliografik ma’lumotlar

Kelishuv va ro’zi

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standardi. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlar tasnifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalar.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.....	8
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	10
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	11
 Bibliografik ma'lumotlar.....	 14
 Kelishuv varog'i.....	 15

1.1. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi

1.1.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari

70230104 – Adabiyotshunoslik magistratura mutaxassisligi – Gid, mukofot shartini va qayta tayyorlash muvassatida mutaxassisligi o'rniga o'shet adabiyot, organizikayotgan adabiyot, hajm adabiyot, akademik adabiyot, sanoatniy adabiyotshunoslik nizamiyoti va amaliyoti, adabiyotshunoslik nizamiyoti, adabiyotchi turxi, organizatorlik adabiyotchi turxi, qadimgi davr diniy adabiyotchi turxi, tashbu va me'nijasid jismon adabiyotshunosligi terisi, organizikayotgan xalqlar folklori, organizikayotgan mamlakat yangi adabiyoti, budizm

1. Umumiy tavsifi

70230104 – Adabiyotshunoslik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi:

Malaka talabi 70230104 – Adabiyotshunoslik magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarning sohalari:

70230104 – Adabiyotshunoslik magistratura mutaxassisligi – Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassisligi doirasida o‘zbek adabiyoti, o‘rganilayotgan adabiyot, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik nazariyasi va amaliyati, adabiyotshunoslik nazariyasi, o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘rganilayotgan adabiyoti tarixi, qadimgi davr dunyo adabiyoti va folklori, tarixi va nazariyasi, jahon adabiyotshunosligi tarixi, o‘rganilayotgan xalqlar folklori, o‘rganilayotgan mamlakat yangi adabiyoti, badiiy

tahlil asoslari, adabiyotshunoslik metodologiyasi, ilmiy tadqiqot asoslari, adabiyot falsafasi; umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'zbek tili va adabiyot fanlarini o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida ilmiy-tadqiqot markazlarida, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida, davlat boshqaruvi organlarida, har xil shakldagi mulk, sanoat va biznes tashkilotlarida mutaxassislikka oid kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning obyektlari:

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat olib borish;

Fanlar akademiyasi, tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida adabiyotshunoslik sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish;

davlat va mahalliy boshqaruvi organlarida faoliyat olib borish;

davlat va nodavlat, xususiy tashkilotlarda tarjimonlik va ish yuritishni tashkil etish, boshqarish huquqiga ega bo'ladi;

ommaviy axborot vositalarida, gazeta va jurnallar tahririyatida, nashriyotlarda faoliyat olib borish.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari

- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *ma'naviy va ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruvi faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat: oliy, malaka oshirish, qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);*
- *turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.*

1.2.4. Kasbiy vazifalar:

70230104 – Adabiyotshunoslik mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

tegishli fan sohalariga oid ilg‘or tajribalarni inobatga olgan holda, mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;

kasbiy faoliyatiga mos ilmiy adabiyotlarni, ilmiy tadqiqot loyihalarini va yangi ilmiy natijalarni o‘rganish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish;

ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

xalqaro ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirot etish;

mahalliy va xalqaro mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarini ishlab chiqish;

yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish *qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.*

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:

ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkillashtirish metodikasini egallah, o‘quvchilar ongiga ma’naviy merosga muhabbat, sog‘lom e’tiqodga chanqoqlik, o‘zaro mehr-shafqat g‘oyasini singdirish;

o‘quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda yozma ma’naviy merosning o‘rni va ta’siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha yakka tartibda suhbat o‘tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o‘tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvyat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

nostandard vaziyatlarda tashkiliy boshqaruv qarorlari qabul qilishi va ushbu qarorlar uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola bilish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o‘qitishni tashkil qilish va korporativ ma’lumotlar bazasini rivojlantirish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;

nodavlat va notijorat tashkilotlarida, xususiy tadbirkorlik subyektlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha menejer sifatida faoliyat yuritish *qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.*

Pedagogik faoliyatda:

o‘qitish metodikasini egallash;

oliy ta’lim, umumta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi muassasalarida mutaxassisligiga oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha nazariy, amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha darslarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta’lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish;

gumanitar fanlar sohasi uchun DTS, Malaka talablari, Davlat talablari va boshqa o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish *qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.*

Turli xizmatlar ko‘rsatish:

mutaxassislikka mos maslahatchilik xizmati;

adabiyotshunoslik tarixini ilmiy o‘rganish, jarayonlarni obyektiv va xolis ilmiylik nuqtayi nazaridan yoritish;

tadqiq qilingan mavzular bo‘yicha aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish; kutubxonalar, axborot-rersurs markazlari, vaqtli matbuot sahifalari va arxiv ma’lumotlaridan foydalana olishga oid metodik faoliyatni amalga oshirish;

qadimgi qo‘lyozma va toshbosma manbalarni o‘qiy olish, ulardan foydalanish; pullik ta’lim xizmati ko‘rsatish;

ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha davlat grantlari va xo‘jalik shartnomalari asosida tadqiqot ishlari boshqa xizmatlarni ko‘rsatish *qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.*

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

milliy-ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda o‘z fikrini og‘zaki va yozma bayon etishi, milliy g‘oyaning nazariy asoslarini anglagan holda “Uchinchi Renessans poydevorini qurish” bosh g‘oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g‘oyalar bilan mutanosibligi va farqini bilishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me’yorlarni kasbiy faoliyatida qo‘llay olishi;

yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtira olishi, takomillashtirishi va o‘z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi, o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy-tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;

o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalarini bilishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo‘lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi lozim; patent olish uchun ish me’yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

o‘zbek adabiyotining mumtoz va zamonaviy davri, jahon adabiyotshunosligi muammolarini, adabiyot nazariyasiga oid bilimlarni tizimli o‘rganish;

adabiyotshunoslik tarixining takomil bosqichlari va taraqqiyot tendensiylaridan xabardor bo‘lish;

maxsus fanlarni o‘qitish metodikasini egallash hamda pedagogik faoliyatda axborot va innovatsyon texnologiyalardan foydalanish;

mumtoz nazmiy va nasriy asarlar matni poetikasiga oid nazariy qonuniyatlarni anglash va ilmiy faoliyatda qo'llay olish, mumtoz adabiyot namunalari matnlarini tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lish;

adabiyotshunoslikda ilmiy-tadqiqot metodologiyasini egallash, tadqiqotlar olib borishda turli metodlarni qo'llay olish;

adabiyotshunoslik asoslarini adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyotshunoslik terminlari va ularning nazariy asoslaridan xabardor bo'lish;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

jahon adabiyotining o'r ganilish tarixi, jahon adabiyotshunosligi metodologiyasining an'anaviy va avangard yo'nalishlari, jahon adabiyoti namunalariga milliy badiiy tafakkur negizida yondashish usul va yo'llarini o'r ganish;

komparativistikaning mazmun-mohiyati, tarixiy-nazariy bosqichlarini o'r ganish, Sharq va G'arb adabiyoti namunalarining tipologik xususiyatlarini tahlil va talqin etish; qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim tarkibiy qismi tarjima nazariyasi asoslarini teran tushunish, tarjima amaliyoti, matn bilan ishlash, badiiy matnlar realiyasi va pragmatik o'girish muammolaridan xabardorlik;

"Tarixiy poetika" istilohi, manbalari, o'r ganilish tarixi, muammoni tadqiq etgan adabiyotshunoslar, tarixiy poetikaning "nazariy poetika" bilan spetsifik aloqadorligi haqida ilmiy axborotga ega bo'lish;

turkiy xalqlar adabiyoti tarixini davrlashtirish muammolari, Turkiy xalqlar folklori, qadimgi afsona va rivoyatlar, mavzulari, qahramonlari, syujetlarining yozma adabiyotga o'tishi, folklor dostonlari va yozma dostonlar, Sayyor syujetlar, dostonlardagi variantlilik, yozma adabiyotning shakllanishi, diniy va dunyoviy adabiyot, tarjima adabiyoti, janrlar haqida bilimga ega bo'lish;

folkloristika genezisi, lingvofolkloristika, folklorshunoslikning taraqqiyot bosqichlari, shakllanishi tarixini bilish, tarixiy folklor janrlari va ularning poetik xususiyatlariga doir qonuniyatlarni anglash, ularni folklor tadqiqotlarida qo'llay olish;

badiiy matn kategoriyalari, badiiy matn kategoryalarini ifodalovchi lisoniy birliklarni tahlil qilishda qo'llanuvchi stilistik tahlil metodlarni bilishi va ulardan uzining ilmiy va kasbiy faoliyatida foydalana olishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, O'MKHT va OTM tizimining mos ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;

umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida, O'MKHT va OTM tizimining mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, jumladan o'quv ustaxonalarida, o'tkazish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lган o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish va tuzish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish, ularning ekspluatatsiyasi qobiliyatiga ega bo'lishi;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lishi;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lish;

o'rganilgan sharq va g'arb tillaridan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

o'rganilayotgan mamlakat adabiyotshunosligining nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari tarixi, adabiyotshunos olimlarning ilmiy faoliyati bilish, mutaxassislikka oid ilmiy manbalar, ilmiy jurnallar, fundamental tadqiqotlar va dissertatsiyalarni o'qish, tahlil etish hamda ilmiy sharhlash;

o'qitilayotgan sharq tilida yaratilgan yozma manbalarni tasniflash va ularning tadrijiy til xususiyatlarini aniqlash;

sharq xalqlari adabiyotida badiiyatshunoslik (poetologiya) ilmining shakllanishi, badiiyatshunoslikka oid yodgorliklar va ularning genezisi o'rganish;

jahon adabiy jarayonlari va ularning o'rganilayotgan mamlakat adabiyotiga ta'siri; adabiy ta'sir asosida nasr va nazmda yuz bergan o'zgarishlar; ta'sir va o'zarot ta'sir jarayonlarida badiiy uslubning o'zgarib borishi; adabiy aloqalar rivojida tarjima san'atining tutgan o'rni;

nazariy materiallar asosida o'rganilayotgan adabiyotga tashqi ta'sir masalasiga oid ma'lumotlarni tasnif qilish, undagi muammolarni tadqiq etish uchun zarur materiallarni izlab topish va tizimli asosda tahlil qila olish bo'yicha *malaka* va *ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak*.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy-pedagogik amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha *ilmiy amaliyot* o'tkaziladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.R.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr
Umumiy Majburiy fanlar					
1.01	ITM 1 04	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M 3 04	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
			Jami:	240	8
70230104 – Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti)					
1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	NP 105	Nazariy poetika	150	5	1
1.04	AT 104	Adabiyotshunoslik tarixi	120	4	1
1.05	MTP 305	Mumtoz tarixiy poetika	150	5	3
1.06	JAM 204	Jahon adabiyoti muammolari	120	4	2
1.07	JAT 1-210	Jadid adabiyoti tarixi	300	10	1-2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	
2.00		<i>Tanlov fanlari (5 ta fan)</i>	720	24	1,2,3
			Jami:	1800	60
Kvalifikatsiya		adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (o'zbek adabiyoti bo'yicha)			
70230104 – Adabiyotshunoslik (Jahon adabiyoti)					
1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	JAUM 1-2-3 14	Jahon adabiyotining umumnazariy muammolari	420	14	1,2,3
1.04	LF 1 05	Lingvofolkloristika	150	5	1
1.05	TPA 2 05	Tarixiy poetika asoslari	150	5	2
1.06	NP 3 04	Nazariy poetika	120	4	3
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1,2
2.00		<i>Tanlov fanlari (4 ta fan)</i>	720	24	1,2
			Jami	1800	60
Kvalifikatsiya		adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (jahon adabiyoti bo'yicha)			
70230104 – Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi)					
1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	ANTT 1 05	Adabiy-nazariy tafakkur tarixi	150	5	1
1.04	NP 1 05	Nazariy poetika	150	5	1
1.05	ATN 2 05	Adabiy tanqid nazariyasi	150	5	2
1.07	SHN 2 04	She'r nazariyasi	120	4	2
1.07	DN 2 04	Drama nazariyasi	120	4	2
1.09	MTP 3 05	Mumtoz tarixiy poetika	150	5	3
2.00		Tanlov fanlari	720	24	
2.00		<i>Tanlov fanlari (5 ta fan)</i>	720	24	1,2,3
			Jami	1800	60
Kvalifikatsiya		adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (adabiyot nazariyasi bo'yicha)			

70230104 – Adabiyotshunoslik (Ingliz adabiyoti)					
1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	AT1204	Adabiy tanqid	120	4	2
1.04	ZAAA11-208	Zamonaviy Angliya-Amerika adabiyoti	240	8	1-2
1.05	BMS1206	Badiiy matn stilistikasi	180	6	2
1.06	BMTM1206	Badiiy matn tahlil metodlari	180	6	2
1.07	KOGA1304	Kognitiv adabiyotshunoslik	120	4	3
2.00		Tanlov fanlari	720	24	
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1,2,3
		Jami	1800	60	
Kvalifikatsiya	adabiyotshunus, pedagog-tadqiqotchi (ingliz adabiyoti bo'yicha)				

70230104 – Adabiyotshunoslik (Sharq adabiyoti)					
1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	MNM11-308	Mutaxassislikning nazariy masalalari	240	8	1-3
1.04	QA1104	Qiyosiy adabiyotshunoslik	120	4	1
1.05	BAT1104	Badiiy asar tahlili metodlari	120	4	1
1.06	ZAOY1204	Zamonaviy adabiy oqimlar va yo'nalishlar	120	4	2
1.07	ShAJA1204	Sharq adabiyoti jahon adabiyoti kontekstida	120	4	2
1.08	ShXAP1204	Sharq xalqlari adabiyoti poetikasi	120	4	2
2.00		Tanlov fanlar (5 ta fan)	720	24	
		Jami:	1800	60	
Kvalifikatsiya	adabiyotshunus, pedagog-tadqiqotchi (sharq adabiyoti bo'yicha)				

70230104 – Adabiyotshunoslik (Rus adabiyoti)					
1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	ATT1304	Rus adabiyoti muammolari va poetikasi	180	6	1
1.04	ZAAD11-208	Zamonaviy adabiy jarayonning nazariyasini va amaliyoti	180	6	1
1.05	BMS1206	Adabiy ta'limot tarixi	180	6	1
1.06	BMTM1206	Imagologiya	180	6	2
1.07	KOGA1304	Muqobil adabiyotshunoslik	120	4	2
2.00		Tanlov fanlari	720	24	
2.00		<i>Tanlov fanlari</i>	720	24	1,2,3
		Jami	1800	60	
Kvalifikatsiya	adabiyotshunus, pedagog-tadqiqotchi (rus adabiyoti bo'yicha)				

70230104 – Adabiyotshunoslik (qoraqalpoq adabiyoti)					
1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	ATVJP1106	Adabiy turlar va janrlar poetikasi	180	6	1
1.04	ANIA11-208	Adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari	240	8	1-2
1.05	MDQA12-308	Mustaqillik davridagi qoraqalpoq adabiyoti	240	8	2-3
1.06	AVF1206	Adabiyot va folklor	180	6	2

70230104 – Adabiyotshunoslik magistratura mutaxassisligi

2.00		Tanlov fanlar	720	24	
2.00		Tanlov fanlari (5 ta fan)	720	24	1,2,3
		Jami:	1800	60	
Kvalifikatsiya	adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (qoraqalpoq adabiyoti bo'yicha)				

70230104 – Adabiyotshunoslik (qozoq adabiyoti)

1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	ATVJ1106	Adabiy turlar va adabiy janrlar	180	6	1
1.04	AVE11-208	Adabiyot va estetika	240	8	1-2
1.05	MDQA12-308	Mustaqillik davridagi qozoq adabiyoti	240	8	2-3
1.06	QXA1206	Qardosh xalqlar adabiyoti	180	6	2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	
2.00		Tanlov fanlari (5 ta fan)	720	24	1,2,3
		Jami:	1800	60	
Kvalifikatsiya	adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (qozoq adabiyoti bo'yicha)				

70230104 – Adabiyotshunoslik (turkman adabiyoti)

1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	ATVJ1106	Adabiy turlar va adabiy janrlar	180	6	1
1.04	ANIA11-208	Adabiyot nazariyasining ilmiy asoslari	240	8	1-2
1.05	ADVF12-308	Adabiyot va folklor	240	8	2-3
1.06	TDP1206	Turkman dastonlari poetikasi	180	6	2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	
2.00		Tanlov fanlari (5 ta fan)	720	24	1,2,3
		Jami:	1800	60	
Kvalifikatsiya	adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (turkman adabiyoti bo'yicha)				

70230104 – Adabiyotshunoslik (tojik adabiyoti)

1.00		Majburiy fanlar	840	28	
1.03	YO`AM1104	Yangi tojik adabiyoti muammolari	120	4	1
1.04	MTP1104	Mumtoz tarixiy poetika	120	4	1
1.05	AM1104	Adabiyotshunoslik metodologiyasi	120	4	1
1.06	AT1204	Adabiyotshunoslik tarixi	120	4	2
1.07	AM1204	Aruzshunoslik muammolari	120	4	2
1.08	AN1204	Adabiyot nazariyasi muammolari	120	4	2
1.09	ATM1204	Adabiy tanqid muammolari	120	4	2
2.00		Tanlov fanlar	720	24	
2.00		Tanlov fanlari	720	24	1,2,3
		Jami:	1800	60	
Kvalifikatsiya	adabiyotshunos, pedagog-tadqiqotchi (tojik adabiyoti bo'yicha)				
3.00		Ilmiy faoliyat	1800	60	1-4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, Uchinchi Renessans axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ishchi dasturlari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, o'rganilayotgan adabiyot, o'rganilayotgan mamlakat mumtoz adabiyoti, o'rganilayotgan mamlakat zamonaviy adabiyoti, mumtoz adabiyot, adabiyot nazariya, tarixiy poetika, tarixiy poetika asoslari, jahon adabiyotshunosligi tarixi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, komparativistika, adabiy aloqa, adabiy ta'sir, tipologiya, adabiy manbalar katalogi, monografik ilmiy tavsif, ilmiy-tanqidiy matn, tarixiy-adabiy asar, metodologiya, folklorshunoslik, global talqin, universal adabiyotshunoslik, sharqona milliy tafakkur.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2024- yil « ____ »
m.o.

m.o.

Rektor

2024-

Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti

Rektor

G.Rixsiyeva

2024- yil « ____ »

m.o.

Rektor

I.Tuxtasinov

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

M.Boltabayev

2024- yil

m.o.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Sharqshunoslik instituti

Direktor

B.Abduxalimov

m.o.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti

Direktor

N.Mahmudov

2024- yil « ____ »

m.o.

O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat
adabiyot muzeyi

Direktor

J.Eshonqulov

2024- yil

m.o.